

SHAXSLARARO MUNOSABATLAR TIZIMIDA MULOQOTNING TUTGAN O'RNI

Yo'lichiboyeva Lola Kalandarovna

FarDU Ijtimoiy-gumanitar fanlar kafedrasи

Annotatsiya. Ushbu maqoalda muloqotning shaxslararo munosabatlardagi o'rni, ahamiyati muhokama etiladi. Munosabatlarning turlari, holat va metodlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: Muloqot, metod, faoliyat, qonuniyat, obyekt.

KIRISH

Insonning o'zini qurshab turgan olam bilan o'zaro birgalikdagi harakati odamlar o'rtaida ularning ijtimoiy hayoti va eng avvalo, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tarkib topadigan obyektiv munosabatlar sistemasida yuz beradi. Obyektiv munosabatlar va aloqalar (bog'langanlik, bo'ysunganlik, hamkorlik, o'zaro yordam munosabatlari va boshqalar) har qanday real guruhda muqarrar va qonuniyatli tarzda yuzaga keladi. Guruh a'zolari o'rtaсидаги ushbu o'zaro obyektiv munosabatlarining in'ikosi shaxslararo subyektiv munosabatlardirki, ularni o'rganish bilan sotsial psixologiya shug'ullanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

A. N. Leontev o'zining "Psixika taraqqiyotidan ocherklar" kitobida muloqotning uchinchi shakli—**avlodlar o'rtaсидаги muloqotning ahamiyati** to'g'risida shunday deb yozadi: «Agar barcha katta avlod o'lib ketganida, insoniyat turi yo'q bo'lib ketmasdi, lekin jamiyatning taraqqiyoti ancha orqaga surilibgina emas, balki yo'qolib ham ketishi mumkin edi». Haqiqatan ham, avlodlararo muloqotning borligi tufayli har bir jamiyatning o'z madaniyati, madaniy boyliklari, qadriyatlari mavjud bo'ladiki, buning ahamiyatini tushungan insoniyatning eng ilg'or vakillari uni doimo

keyingi avlodlar uchun saqlab keladilar hamda ta’lim, tarbiya va kundalik muloqot jarayonida uni avloddan-avlodga uzatadilar.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Muloqot- odamlarning birgalikdagi faoliyatlarini ehtiyojlaridan kelib chiqadigan turli faollikkari mobaynida bir-birlari bilan o‘zaro munosabatlarga kirishish jarayonidir. Ya’ni, har bir shaxsning jamiyatda ado etadigan ishlari (mehnat, o‘qish, o‘yin, ijod qilish va boshqalar) o‘zaro munosabat va o‘zaro ta’sir shakllarini o‘z ichiga oladi. Chunki har qanday ish odamlarning bir-birlari bilan til topishishni, bir - birlariga turli xil ma’lumotlarni uzatishni, fikrlar almashinuvi kabi murakkab hamkorlikni talab qiladi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o‘rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro‘sisi uning muloqatga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog‘liqdir.

Muloqot odamlar o‘rtasida birgalikdagi faoliyat ehtiyojlaridan kelib chiqadigan bog‘lanishlar rivojlanishining ko‘p qirrali jarayonidir.

Muloqottning ikkinchi jihat - munosabatga kirishuvchilarning o‘zaro birgalikdagi harakati - nutq jarayonida faqat so‘zlar bilan emas, xatti – harakatlar, imo-ishoralar, mimika, jestika bilan ham ayirboshlashdan iborat. Do‘kon kassasi oldida hisob kitobni amalga oshirarkan, xaridor bilan sotuvchi hatto ulardan birortasi hech qanday so‘z ishlatishmasa ham o‘zaro munosabatga kirishadi; xaridor kassirga xarid qilingan narsa uchun tovar cheki va pul taqdim etsa, sotuvchi chek urib, qaytimini sanab beradi.

Nihoyat, muloqotlarning uchinchi jihat munosabatga kirishuvchilarning bir-birlarini idrok eta olishlarini taqozo qilishidir. Masalan, munosabat bo‘yicha sheriklardan biri boshqasini ishonsa bo‘ladigan, aqli, tushunadigan, tayyorgarlik ko‘rgan kishi sifatida idrok etishi yo idrok etmasligi, balki oldindanoq u hech narsani tushunmaydi va xabar qilingan narsaning fahmiga etmaydi, deb hisoblashi juda muhimdir. Shunday qilib, yagona munosabat jarayonida shartli ravishda uchta jihatdan - kommunikativ (axborot uzatish), interaktiv (o‘zaro birgalikda harakat qilish) va perseptiv (o‘zaro birgalikda idrok etish) jihatlarini alohida ko‘rsatish mumkin.

Muloqotning birgalikdagi faoliyat bilan aloqasi aniq-ravshandir. Lekin shunday savol tug‘iladi: munosabat birgalikdagi faoliyatining bir qismi, tomoni, jihatni hisoblanadimi yoki munosabat va faoliyat ikkita mustaqil to‘laqonli jarayonmi?

Kishi birgalikda faoliyat ko‘rsatayotganda zaruriyatga ko‘ra boshqa odamlar bilan birlashishi, ular bilan muomalaga kirishishi, ya’ni aloqa o‘rnatishi, o‘zaro hamjihatlikka erishishi, kerakli axborot olishi va javob tariqasida axborot berishi lozim va hokazo. Bu o‘rinda munosabat faoliyatning bir tomoni, bir qismi, uning eng muhim informativ jihatni, kommunikasiya (birinchi turdag‘i munosabat) sifatida namoyon bo‘ladi.

Yaratilgan narsa (qurilgan bino, aniq she’riy satr, o‘tqazilgan daraxt, yaratilgan yoki ijro etilgan qo‘shiq)- bu, bir tomondan faoliyat mazmuni bo‘lsa, ikkinchi tomondan esa vosita sifatida namoyon bo‘ladiki, kishi uning yordami bilan ijtimoiy hayotda o‘zini qaror toptiradi. Negaki, bu narsa boshqa odamlar uchun yaratilgandir. Shu narsa orqali odamlar o‘rtasidagi munosabat bevosita o‘zini aksini topadi, ijod qilayotganlarga va bajarayotganlarga ham, iste’mol qilayotganlarga va o‘zlashtirayotganlarga ham babarobar tegishli bo‘lgan umumiy narsani ishlab chiqarish tariqasidagi munosabat hosil bo‘ladi.

Har qanday muloqotning eng elementar funksiyasi - suhbatdoshlarning o‘zaro *bir - birini tushunishlarini* ta’minlashdir. Bu o‘zbeklarda samimiy salom - alik, ochiq yuz bilan kutib olishdan boshlanadi. O‘zbek xalqining eng nodir va buyuk hislatlaridan biri ham shuki, uyiga birov kirib kelsa, albatta ochiq yuz bilan kutib oladi, ko‘rishadi, so‘rashadi, hol - ahvol so‘raydi. Shunisi xarakterligi, ta’ziyaga borgan chog‘da ham ana shunday samimiyatli qabulni his qilamiz.

Uning **ikkinchi** muhim funksiyasi ijtimoiy tajribaga asos solishdir. Odam bolasi faqat odamlar davrasida ijtimoiylashadi, o‘ziga zarur insoniy xususiyatlarni shakllantiradi. Odam bolasining yirtqich hayvonlar tomonidan o‘g‘rilanib ketilishi, so‘ng ma’lum muddatdan keyin yana odamlar orasida paydo bo‘lishi faktlari shuni ko‘rsatganki, «mauglilar» biologik mavjudot sifatida rivojlanaveradi, lekin ijtimoiylashuvda ortda qolib ketadi. Bundan tashqari, bunday holat boladagi bilish qobiliyatlarini ham cheklashi ko‘plab psixologik eksperimentlarda o‘z isbotini topdi.

Muloqotning yana bir muhim vazifasi - u odamni u yoki bu faoliyatga hozirlaydi, ruhlantiradi. Odamlar guruhidan uzoqlashgan, ular nazaridan qolgan odamning qo‘li ishga ham bormaydi, borsa ham jamiyatga emas, balki faqat o‘zigagina manfaat keltiradigan ishlarni qilishi mumkin. Masalan, uzoq vaqt termokamerada bo‘lgan odamda idrok, tafakkur, xotira, hissiy holatlarning buzilishi qayd etilgan. Lekin ataylab emas, taqdir taqozosi bilan yolg‘izlikka mahkum etilgan odamlarning maqsadli faoliyatlar bilan o‘zlarini band etishlari u qadar katta salbiy o‘zgarishlarga olib kelmasligini ham olimlar o‘rganishgan. Lekin baribir har qanday yolg‘izlik va muloqotning yetishmasligi odamda muvozanatsizlik, hissiyotga beriluvchanlik, hadiksirash, xavotirlanish, o‘ziga ishonchsizlik, qayg‘u, tashvish hislarini keltirib chiqaradi. Shunisi qiziqliki, yolg‘izlikka mahkum bo‘lganlar ma’lum vaqt o‘tgach ovoz chiqarib, gapira boshlasharkan. Bu avval biror ko‘rgan yoki his qilayotgan narsasi xususidagi gaplar bo‘lsa, keyinchalik nimagadir qarab gapiraverish ehtiyoji paydo bo‘lar ekan. Masalan, bir M.Sifr degan olim ilmiy maqsadlarini amalga oshirish uchun 63 kun g‘or ichida yashagan ekan. Uning keyinchalik yozishicha, bir necha kun o‘tgach, u turgan yerda bir o‘rgimchakni ushlab oladi va u bilan dialog boshlanadi. «Biz, deb yozadi u shu hayotsiz g‘or ichidagi tanho tirik mavjudotlar edik. Men o‘rgimchak bilan gaplasha boshladim, uning taqdiri uchun qayg‘ura boshladim...»

Shaxsning muloqotga bo‘lgan ehtiyojining to‘la qondirilishi uning ish faoliyatiga ham ta’sir ko‘rsatadi. Odamlar, ularning borligi, shu muhitda o‘zaro gaplashish imkoniyatining mavjudligi fakti ko‘pincha odamni ishslash qobiliyatini ham oshirarkan, ayniqsa, gaplashib o‘tirib qilinadigan ishlar, bиргаликда yonma - yon turib bajariladigan operatsiyalarda odamlar o‘z oldida turgan hamkasbiga qarab ko‘proq, tezroq ishslashga kuch va qo‘simecha iroda topadi. To‘g‘ri, bu hamkorlikda o‘sha yonidagi odam unga yoqsa, ular o‘rtasida o‘zaro simpatiya hissi bo‘lsa, unda odam ishga «bayramga kelganday» keladigan bo‘lib qoladi. Shuning uchun ham amerikalik sotsiolog hamda psixolog Jon Moreno asrimiz boshidayoq ana shu omilning unumdarlikka bevosita ta’sirini o‘rganib, sotsiometrik texnologiyani, ya’ni

so‘rovnama asosida bir - birini yoqtirgan va bir - birini inkor qiluvchilarni aniqlagan va sotsiometriya metodikasiga asos solgan edi.

Muloqotning shakllari va bosqichlari: Muloqot jarayoni o‘ziga xos ravishda murakkab bo‘lib, bunda uch xil bosqich mavjud.

Dastlabki bosqich — **odamning o‘z-o‘zi bilan muloqotidir**. T.Shibutani “Ijtimoiy psixologiya” darsligida: «Agar odam ozgina bo‘lsa ham o‘zini anglasa, demak, u o‘z-o‘ziga ko‘rsatmalar bera oladi»— deb to‘g‘ri yozgan edi. Odamning o‘z-o‘zi bilan muloqoti aslida uning boshqalar bilan muloqotining harakterini va hajmini belgilaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Shunday qilib, muloqot odamlarning jamiyatda o‘zaro hamkorlikdagi faoliyatlarining ichki psixologik mexanizmini tashkil etadi. Qolaversa, hozirgi yangi demokratik munosabatlar sharoitida turli ishlab chiqarish qarorlarini yakka tartibda emas, balki kollegial - birgalikda chiqarish ehtiyoji paydo bo‘lganligini hisobga olsak, odamlarning muomala madaniyati va muloqat texnikasi mehnat unumдорлиги hamda samaradorlikning muhim omillaridandir.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olajanob xalqimiz bilan birga quramiz. –T.: O‘zbekiston, 2017. 488-b.
2. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya.T. “fan va texnologiya”. 2012 y. 51 bet
3. A’zamxo‘jaeva E.A. Muomala maromining yosh xususiyatlari va dinamikasi. Psixol. fanl. nomz.dis... -Toshkent: 2002. – 155 b.
4. Лафрене П. Эмотсиональное развитие детей и подростков / П. Лафрене. СПб.: Изд-во «Питер», 2004. 222 с.